

**AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI
VA MENEJMENT
UNIVERSITETI**



INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE



- Iqtisod fanlari
- Tarix fanlari
- Texnika fanlari
- Filologiya fanlari
- Tibbiyot fanlari
- Pedagogika fanlari



O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA MENEJMENT
UNIVERSITETI

№ 274079 raqami bilan davlat ro’yhatidan o’tgan jurnal.

www.worldlyjournals.com

INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE
1-son, 2024

Bosh muharrir:

Sunnatov Zafar Ubaydullaevich

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti rektori, Texnika
fanlari nomzodi, dotsent

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Mahmudova Umida Ural qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti Xalqaro aloqalar
bo'lim boshlig'i f.f.f.d., dotsent

Jurnal qabul yo'nalishlari:

10.00.00 – Filologiya fanlari

05.00.00 - Texnika fanlari

07.00.00 – Tarix fanlari

08.00.00 - Iqtisod fanlari

14.00.00 - Tibbiyot fanlari

13.00.00–Pedagogika fanlari



Qarshi - 2024

Xoliqov G'olib Jahongirovich	
DUNYO DAVLATLARINING QORAKO'LCHILIK SOHASIGA E'TIBORI B.A.Axmedov	109
SUV TOSHQINI SABABLARINI O'RGANISH Xujaqulov Abdulaziz Hakim o'g'li Mirzayev Otabek Abdukarimovich	114
C++ DASTURLASH TILI VA PYTHON DASTURLASH TILLARINING O'ZARO FARQLARI Hoshimov Orzimurod	121
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ПОЖАРОВ В СФЕРЕ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА Джураев Бобомурод Худайназарович	126
СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ КОНСТРУКЦИИ ПИТАЮЩЕГО ЦИЛИНДРА ШЕВРОННОГО ТИПАМ НА ФИЗИКО- МЕХАНИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ПНЕВМОМЕХАНИЧЕСКОЙ ПРЯЖИ Мирзаев Отабек Абдукаримович Эшмухамедов Латиф Махмаюсуфович Маматов Нурбек Зиёдуллаевич Тоғаев Жамшид Хужамбердиевич	139
BO'LAJAK MUHANDISLARNING AXBOROTLI-INTELEKTUAL KO'NIKMALARINI SHAKILLANTIRISHDA MODELLASHTIRISH Xolov Komil Absamatov Zuxriddin Axmad o'g'li Tufliyev Egamberdi Olimovich	148

SUV TOSHQINI SABABLARINI O'RGANISH

Xujaqulov Abdulaziz Xakim o'g'li

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

“Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi” kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail: kundalikkun@mail.ru

Mirzayev Otabek Abdulkarimovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

“Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi” kafedrasida dotsenti.

E-mail: kiamoa@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada kuchli yomg'ir yog'ishi natijasida suvlarning sathi keskin ko'tarilib, daryo, ko'llarga sig'maydi va natijada ekin maydonlarini turar joy massivlarini, yo'llarni suv bosishi va ularni izdan chiqarishi, bundan tashqari, elektr energiya, aloqa uzatgichlar, melliorativ tizimlar ishdan chiqishi, chorva mollari, qishloq xo'jaligi ekinlari yo'q bo'lib ketishi, xom ashyolar, yoqilg'i, oziq ovqatlar, mineral o'g'itlar va boshqa muhim mahsulotlar yaroqsiz holga kelishi bayon etilgan.

Bundan tashqari suv to'lqin balandligi va tezligi daryoning gidrologik va topografik sharoitlariga bog'liqligi o'rganilib suvning to'lqin parametrlari, suv old to'lqin parametrlari hisoblandi hamda aholi va hududlarni suv toshqinidan himoya qilishning muhim sharti ishlab chiqilgan.

Tayanch so'z va iboralar: tabiiy ofatlar, sath, toshqini, suv sathi, suv ombori, suv to'lqin balandligi, suv to'lqin tezligi, to'lqin parametri, suv old to'lqin parametri, suv to'lqini o'tish vaqti.

KIRISH.

Tabiiy ofatlar insoniyat boshiga og'ir kulfatlar soluvchi, ekologik muhitga, xalq xo'jaligiga beqiyos zarar yetkazuvchi hodisalar bo'lib, ular har yili mamlakatimizning turli hududlarida sodir bo'lib turadi, har yili turli-tuman tabiiy hodisalar mamlakatimizning u yoki bu hududlarida sodir bo'lib turishi uzoq yillik kuzatishlardan ma'lum. Masalan; Samarqand va Farg'ona viloyatlarida sel va ko'chki hodisalari, Xorazm va Toshkent viloyatlari hududlarida suv toshqini, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida esa chang -to'zonli shamollar, «Afg'on» shamollari sodir bo'lib turadi. tabiiy ofat, bu insonga bo'ysunmas kuch va katta talofatlar keltirib chiqaradigan tabiiy hodisadir. Sayyoramiz aholisiga juda katta zarar yetkazadi. Dunyoda shu davrga qadar tabiiy ofatlar doimiy ravishda bo'lib kelmoqdava bundan keyin hamyuz berishi ehtimoldan holi emas. Tabiiy ofat-bu tabiatda yuz beradigan favquloddagi o'zgarish bo'lib, u

birdan, tezlikda insonlarning mo'tadil yashash, ishlash sharoitlarining buzilishi, odamlarning o'limi hamda qishloq xo'jaligi hayvonlarining, moddiy boyliklarning yo'q bo'lib ketishi bilan tugaydigan hodisalardir. Tabiiy ofatlarning turlari juda xilma-xil: yer silkinishi, suv toshqini, kuchli shamol, yong'in,

MUAMMONING O'RGANILGANLIK DARAJASI.

Kuchli yomg'ir yog'ishi natijasida suvlarning sathi keskin ko'tarilib, daryo, ko'llarga sig'maydi va natijada ekin maydonlarini turar joy massivlarini, yo'llarni suv bosadi va ularni izdan chiqaradi. Bundan tashqari, elektr energiya, aloqa uzatgichlar, melliorativ tizimlar ishdan chiqadi, chorva mollari, qishloq xo'jaligi ekinlari yo'q bo'lib ketadi, xom ashyolar, yoqilg'i, oziq ovqatlar, mineral o'g'itlar va boshqa muhim mahsulotlar yaroqsiz holga keladi, yoki butunlay yo'q bo'lib ketadi. Shular hatijasida juda katta miqdorda moddiy zarar ko'rib, insonlarni yaxshi hayot kechirishiga halaqit qilishi mumkin.

Suv toshqini turli joylarda, jumladan, O'zbekistonda ham tez-tez bo'lib turadi. Masalan, 1992-1995-yillarda ko'pgina viloyatlarda-Xorazm, Buxoro, Surxondaryo, **Qashqadaryo**, Jizzax, Sirdaryo va boshqa joylarda juda katta ekin maydonlari suv ostida qolib, oqibatda juda katta moddiy zarar ko'rildi. Kuchli yomg'ir yog'ishi natijasida, suv toshqini 1993, 1994, 1995, 2000, 2001-yillarda Evropa davlatlarida ham kuzatilib, bularning oqibatida nafaqat moddiy zarar, balki hisoblab bo'lmaydigan ma'naviy zarar- insonlar o'limi yuz berdi. Oqar daryolarda suvlarning sathi muzliklar bilan qoplanishi ham suvning oqimiga qarshi to'siqlar (to'g'onlar) hosil bo'lishi natijasida suv toshqini ro'y berishi mumkin. Bu xildagi toshqin 1992-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida Amudaryo oqib o'tadigan uchta tumanda kuzatildi. Natijada muz to'g'onlarni samolyotlardan portlatish bilan eritildi va mintaqani suv bosish xavfi bartaraf etildi. Suv toshqini kanallar va suv saqlaydigan omborlarning turli sabablarga ko'ra ishdan chiqishi oqibatida ham kuzatilishi mumkin.

Umuman kanallar, **suv omborlari**, **suv energiyasi**, suv yo'llari hamda suvning o'zidan foydalanish maqsadida quriladi. Hozirgi vaqtda MDH davlatlarida suv sig'imi 1 million metr /kub dan ortiq bo'lgan suv omborlari mingtaga yaqin bo'lib, ularning suv sathi 116000 kilometr/kub ga teng. (shundan 53 ta suv ombori O'zbekiston xududida joylashgandir) bu suv omborlarida 55,5miliard metr/kubdan ortiq suv saqlanib, ular orqali qishloq xo'jaligi suv bilan ta'minlanib, katta iqtisodiy samara olinadi. Lekin bunday **gidrotexnik inshootlar** biror sabablar bilan buzilsa atrofida yashovchi atrof-muhitga, insonlarga, dehqonchilikka jiddiy zarar keltiradi. Masalan, Chorvoq suv omborida 2,1 km/kub suv saqlanib, agar u buzilsa 8 metr qalinlikdagi suv

Toshkent viloyatining uchta tumanini 46 km/ soat tezlik bilan harakatlanib suv bosish xavfi tugʻiladi. Shunga oʻxshash katta hajmdagi suv omborlari Jizzax, Sirdaryo, Buxoro, Samarqand viloyatlariga ham xavf solishi mumkin. Shuning uchun suv saqlaydigan omborlarni har xil falokatlardan asrash uchun hamma turdagi ehtiyot choralarini koʻrilishi lozim.

Uzoq muddat tinimsiz yomgʻir va qor yogʻishi, qor va muzlarning shiddat bilan erishi va tabiiy koʻllardan suv toshib ketishi natijasida daryolar, koʻllar, suv omborlarida suv sathining koʻtarilishi sodir boʻladi va oqibatda katta-katta maydonlarni suv bosishi mumkin.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMALAR.

Suv sathi uzliksiz kutarilishi va daryo oʻzanlariga siqilishi natijasida suv toshqinlari kelib chiqadi.

Suv toʻlqin balandligi va tezligi daryoning gidrologik va topografik sharoitlariga bogʻliq. Masalan, pasttekisliklar uchun toʻlqinlar tezligi soatiga 3 km dan 25 km gacha, togʻ va togʻ oldi hududlarida soatiga 100 km ga yetadi.

Suv toʻlqin parametrlarini hisoblash uchun dastlabki maʼlumotlar quyidagilar:

Suv ombori hajm

$$W = H_B \times C_B / 3 \text{ mln/m}^3$$

bunda, H_B - toʻgʻon ostidagi suv ombori chuqurligi, m;

C_B - suv omborining toshqin maydoni, m^2

suv ombori toʻgʻoni kengligi - B_w , m;

toʻgʻon ostidagi daryo chuqurligi - h_0 , m;

toʻgʻon oldi suv ombori suv sathi - Y_B , m;

toʻgʻon pastidagi daryoda suv sathi - Y_p , m;

daryo uzani qiyaligi

$$i=B_{cp}\times h_0^2/M_B\times M(M+1)$$

bunda, M - daryoning kesishgan shaklini tavsiflovchi parametri B_{cp} – daryo yuqori qismining eni, h_0 daryo bo‘shliq kengligi.

Oldi to‘lqinini hisoblashda qo‘yidagi taxminlar hisobga olinadi.

Gidrotexnika inshootlar yoki uning bir qismini darhol buzilish, buzilish darajasi - % hisoblanadi, suv ombori ichidagi suv kesishmasi uzunligi % da olinadi.

Suv old to‘lqin parametrlarini hisoblashda quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Birinchi stvordagi to‘lqinining balandligini aniqlash

$$H_{B1} = 0.6H - h_0, m,$$


bunda, h_0 - to‘g‘on ostidagi daryoning chuqurligi, m;

2. Belgilangan nuqtadan suv to‘lqini o‘tish vaqtini aniqlash (suv omborini to‘liq bo‘shatish vaqti)

$$T = \frac{W \cdot A}{3600 \cdot \mu \cdot B \cdot H \sqrt{H}}$$

bunda, A – suv ombori egrilik koeffitsenti 2ga teng. M - daryo tubining shaklini tavsiflovchi parametr; H - suv inshootlari oldidagi suv omborining chuqurligi; μ - suv ombori shakli xarakterlovchi parametrt.

Aholi va hududlarni suv toshqinidan himoya qilishning muhim sharti- bu xavfli hodisalarning vaqti, tabiati va parametrlarini bashoratidir. Davlat gidrometeorologik xizmati, gidrometriologik xodisalarning bashoratini olib boradi. Butun mamlakat bo‘ylab ob-havo nazorat qilish stansiyalari tarmoqlari tomonidan ob-havo bashoratlariga asoslanib, ma’lum bir daryo havzasida suvning o‘cish jarayonini shakllantiradi va kutilayotgan toshqin parametrlari bashoratini beradi.
1-rasm.



1-rasm. Aholi va hududlarni suv toshqinidan himoya qilish

Vaqtiga qarab, gidrometeorologik bashoratlar qisqa muddatli (ikki haftagacha) va uzoq muddatli (uzoq vaqti bilan) bo'lishi mumkin.

Qisqa muddatli bashoratlar gidrodinamika ko'rsatkichlarni aniqlash, pastki va oraliq qismlarda suvning sathi va oqimini vaqtga qarab aniqlash orqali amalga oshiriladi.


Uzoq muddatli bashoratlardan, suv toshqinlar hajmini bashorat qilishda ishlatiladi. Ushbu bashoratlar suv balansi usuliga asoslangan bo'lib, suv toshqini paytida daryo havzasidagi suv miqdori va qor qatlamidagi suv zaxiralari, kutilayotgan yog'ingarchilik, tuproqqa suvning singib borishi va uzoq muddatli gidrometeorologik kuzatuvlar asosida bug'lanish kabi omillar o'rtasidagi empirik aloqalarni o'rnatadi.

Bashoratga binoan, maxsus vakolatli davlat organlari va mahalliy hokimiyat organlari oldindan himoya qilinadigan turli xil tadbirlarni amalga oshiradilar, ular muayyan hududda kutilayotgan toshqin xavfini minimallashtirishlari choralarini ko'radi va amalga oshiradi.

Shuning uchun bunday hodisalardan aholini ogohlantirish, bashorat qilish, oldini olish tizimini takomillashtirish, ularning oqibatlarini bartaraf etish uchun o'z vaqtida sifatli choralar ko'rish zarur. O'lim xavfini, moddiy va ma'naviy zarar miqdorini kamaytirish maqsadida so'nggi o'n yilliklar davomida tabiiy xavflarni tahlil qilish ham muhimdir.

Ushbu tabiiy xavflarning fojiali oqibatlarini oldini olish uchun quyidagi sxemani ko'rib chiqish mumkin.

2-rasm.



2-rasm. Suv toshqinini boshqarish

Xulosa va takliflar

Suv toshqinning halokatli oqibatlarini quyidagi sharoitlarda oldini olish mumkin [3-4]:

- suv toshqinlari bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning bashoratini uzluksiz olib borish;
- suv toshqinlarining oldini olish bo‘yicha barcha darajadagi organlarni ishni muvofiqlashtirish;
- belgilangan vazifalarni bajarmagan shaxsiy javobgarligi oshirish.

Afsuski, bu choralar har doim ham amalga oshirilmaydi. Respublikada suv toshqinlari ta’sirini kuchaytiradigan asosiy sabablar qatorida quyidagilarni ta’kidlash zarur:

- aholi va boshqaruv organlarining vujudga kelishi mumkin bo‘lgan xavf to‘g‘risida oldindan ogohlantirilmaganligi;
- suv xo‘jaligi xizmatlari tayyor emasligi va daryolar uzanlarini tozalash ishlariga e’tiborsizlik va h.k.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Khazratov, A. N., Bazarov, O. S., Jumayev, A. R., Bobomurodov, F. F., & Mamatov, N. Z. (2023). Influence of cohesion strength in cohesive soils on channel bed erosion. In E3S Web of Conferences (Vol. 410, p. 05018). EDP Sciences.
2. Eshev, S. S., Bobomurodov, F. F., Isakov, A. N., & Mamatov, N. Z. (2022). Evaluating the effect of cohesive strength on self-leaching in bonded soils. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, 9(8), 19636-19641.
3. Norxajayev A.Q., Yunusov M.Y., Favqulodda vaziyatlar va muhofaza tadbirlari. –T., “Universitet”, 2001. 187 b
4. Nigmatov I Tojiyev M.X.,ov Ilxomov M.X Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi” O‘quv qo‘llanma. –T., “Iqtisod-moliya”, 2005. 192 b
5. A. Kh.Khujaqulov. Analysis of radioactive damage to surfaces and individuals. Innovative Development in Educational Activities. 2023/9/30 Страницы-145-149

6. Xujaqulov Abdulaziz Hakim o'g'li. Umumkasbiy fanlarni o'qitish orqali talabalar tomonidan shakllanadigan tadqiqotchilik qobiliyatlari. CONFERENCE INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 2023.- Страницы 321-326.
<https://interonconf.org/index.php/usa/article/view/8742/7425>
7. Oktabr Dustkabilovich Raximov, Abdulaziz Hakim Ugli Xujakulov, Вахром Хусанович Shomurotov, Dilrabo Oktabrovna Raximova. Неиспользуемые возможности: дистанционного образования в Узбекистане. Научный журнал. 2021.- Страницы 72-75.
8. Abdulaziz Hakim O'G'Li Xujaqulov. Muhandislik ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy tanlovga ta'sir etuvchi omillar. Science and Education. 2023.- Страницы 493-496
9. А.Х.Хужакулов.Значение инновационных технологий в организации самостоятельной работы студентов в системе высшего образования. Вестник науки. 2023.- Страницы 113-117
10. Xujaqulov Abdulaziz Hakim o'g'li. Muhandislik yo'nalishi talabalarining umumkasbiy tayyorgarligiga qo'yilgan talablar. Prospects and main trends in modern science 2023.- Страницы 60-63
11. Ж.У.Шоназаров, А.Х.Хужакулов.Творческая и инновационная деятельность будущего преподавателя и способы достижения профессиональных навыков. 2020.- Страницы 55-60
12. Rakhimov Oktyabr Dustkabilovich, Manzarov Yusufjon Khurramovich, Keldiyarova Malika, Hudjakulov Abdulaziz Hakim Ugli. Modern lectures and methods of organizing problematic lectures. Проблемы науки 2020.- Страницы 46-49

C++ DASTURLASH TILI VA PYTHON DASTURLASH TILLARINING O'ZARO FARQLARI

Hoshimov Orzimurod

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti Axborot texnologiyalari kafedrasida assistent o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola C++ va Python dasturlash tillarining asosiy farqlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada har ikki tilning o'ziga xos xususiyatlari, samaradorligi, tipizatsiyasi, kod yozish va o'qish qulayligi, hamda kutubxonalari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Misollar yordamida C++ va Python dasturlarining qanday yozilishi ko'rsatilib, har bir tilning afzalliklari

INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE
1-son,2024